



## AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI

Sharipov Fazliddin,

Filologiya fanlari toktori (DSc), professor

fazliddindpr@mail.ru

Axrorov Alisher

falsafa doktori (PhD), dotsent, GulDU,

axrorov891115@gmail.com

Mamatqulov Azizbek

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Xudoyqulova Shoxistaxon

Guliston davlat universiteti kattao'qituvchisi

shoxista\_xudoyqulova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10799309>

### ARTICLE INFO

Received: 06th March 2024

Accepted: 07th March 2024

Published: 09th March 2024

### KEYWORDS

tub so'z, termin, atama, arxaik,  
leksika

### ABSTRACT

*Maqolada akademik Azim Hojiyevning XX asr o'rtalarida yaratgan sinonimik lug'atlari va sinonimik qatordagi so'zlarning uslubiy ma'no aks ettirishi, shuningdek, lingvistik atamalarning to'g'ri qo'llanishiga doir ilmiy qarashlari va leksikografik tadqiqotlari bilan birgalikda istiqlol davrida yaratilgan o'zbek lotin alifbosidagi imlo lug'atlarining tuzilishi va ushbu lug'atlarda olimning lug'atshunoslikka doir ilmiy qarashlarini aks ettiriladi.*

Lug'atlarning ilmiy faoliyatda o'rni muhim sanaladi. Ulardan to'g'ri foydalanish jiddiy masala hisoblanadi. Azim Hojiyevning leksikografika oid ilmiy ishlari, asosan, o'zbek tilidagi sinonimlar, faol so'zlar, imlo, tilshunoslik terminlari kabi ishlarni o'z ichiga qamrab oladi. Azim Hojiyevning 1963-yilda o'zbek tilida birinchilardan bo'lib sinonimlar lug'atini tuzdi. O'zbek tilida hali izohli lug'atlar tuzilmagan bir paytda bu juda kerakli ish bo'lib xizmat qildi. "Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати" kitobi o'zbek tilida, nafaqat, sinonimlarning lug'ati bo'lib xizmat qildi, balki sinonimlarning uslubiy bo'yoqdorligi haqida ham muhim manba bo'lib xizmat qildi. Azim Hojiyev ushbu kitobida asosan o'zbek tilidagi faol so'zlarni kiritadi. Kitobda olim sinonimik qatorga kiruvchi so'zlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan ottenka mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Misol uchun, *qaramoq, boqmoq, tikilmoq, termilmoq* ushbu so'zlar sinonimik qatordan joy olgan va ularni birlashtiruvchi ma'no mavjud, ammo ulardan faqat *qaramoq* va *boqmoq* so'zlari to'laligicha sinonim bo'lishi mumkin, tikilmoq va termulmoq so'zlari esa o'zidagi ma'noni bo'rttirishga xizmat qiladi deya ta'rif beradi.<sup>1</sup> Olimning o'zbek tilida sinonimlariga bag'ishlangan keyingi davrdagi lug'atlari ham diqqatga sazovor. 1974-yilda Azim Hojiyevning "Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати" kitobi nashrga chiqdi. Ushbu kitobda olim sinonimik qatordagi so'zlarning uslubga ko'ra qo'llanishi, kam yoki ko'p ishlatiladigan so'zlar, sinonimik qatordagi bosh so'z haqida ham fikr bildirib o'tilgan.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. Т: Фан. 1963. Б 10

<sup>2</sup> Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т: Фан. 1974. Б 5

Azim Hojiyev tilshunoslikdagi terminlarning to'g'ri qo'llanishi yoki noo'rin qo'llanishi borasida qator maqolalar chiqargan. Umuman olganda, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishida har bir sohaga oid terminlarni to'la qamrab olgan terminologik lug'atlarni, ayniqsa, izohli terminologik lug'atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda olimning tilshunoslik terminlarining notog'ri qo'llanishiga e'tirozlar bildirgan.<sup>3</sup> Olimning 1985-yilda o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib "Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати" kitobi terminologiya oid ishlarda muhim qadam bo'ldi. Azim Hojiyevning keyingi yillardagi "Тилшунослик атамаларининг русчаўзбекча қисқача луғати". (1993); "Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати." (2002) kitoblari o'zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida burilish yasadi.

Azim Hojiyev 1981-yilda o'zbek tilida tuzilishi dolzarb bo'lgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" da tuzuvchilar safida lug'atning I, K, N qismlarini tuzishda qatnashdi. Va tilshunosligimizda izohli lug'atni takamillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib bordi. Azim Hojiyev o'zbek tilida lug'at tuzuvchilar uchun yo'riqnoma ishlab chiqdi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tuzishda ham jonbozlik ko'rsatdi. 2006-2008- yillarda yaratilgan "O'zbek tilininh izohli lug'ati" o'z ichiga 80000 so'zni qamrab olgan bo'lib, lug'atda shevaga oid so'zlarni, tarixiy va arxaik leksikani ham ko'rishimiz mumkin. Lug'at tuzilishi va undan foydalanish qismini Azim Hojiyev yozdi. Lug'atda berilyotgan atamalar esa XX asrda o'zbek adabiyotida qo'llanganligi bilan asoslangan. Azim Hojiyev "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tuzish printsiplarini ishlab chiqar ekan, so'zlarni izohlashning olti qatlamini ochib beradi. Bular: bosh so'z; lug'at maqolasining bosh so'zdan keying komponenti, bosh so'zning etimologiyasi haqidagi ma'lumot; lug'at maqolasining etimologik ma'lumotdan keyingi bosh so'zga uning ma'nosi oldidan beriladigan grammatik, uslubiy va havola etuvchi qaydlar; izohlanuvchi birliklar (bosh so'z va turg'un iboralar) ma'nosini belgilash va qayd etish; lug'at maqolasining eng asosiy qismi izohlanuvchi birliklar ma'nolariga beriladigan izoh; lug'at maqolasining so'nggi komponenti izohlanuvchi birlik ma'nosi izohidan keyin beriladigan illyustrativ misollar.<sup>4</sup>

Azim Hojiyev o'zbek tilida imlo masalalari bo'yicha ham leksikografik asarlar yaratdi. Bunday lug'at so'zlarning mavjud imlo qoidalariga binoan to'g'ri yozilish shaklini qayd etadi. 1929-yildan to hozirgi kungacha kirill va lotin alifbolariga asoslangan o'zbek yozuvida o'zbek tilining turli hajmdagi 20 dan ortiq imlo lug'ati yaratilgan.<sup>5</sup>1995- yilda "O'zbek tilining imlo lug'ati" kitobi nashrga chiqdi. 2003- yilda esa Shavkat Rahmatullayev va Azim Hojiyev birgalikda "O'zbek tilining imlo lug'atini yaratishdi. Ushbu lug'atda o'zbek tilida lotin yozuviga asoslangan alifbo joriy qilingandan so'ng tovush va harf munosabatiga bag'ishlangan qismi qayta yozildi. Lug'at hozirgi o'zbek tilining imlo qoidalariga mos ravishda ishlab chiqildi va asosan eng xat6 qilinishi mumkin bo'lgan tub so'zlar kiritildi.

Til doim harakatda bo'lgani uchun so'zlarning umumiste'moldagi holati ham o'zgarib boradi. Bir so'zning anglatgan ma'nosi saqlanib shakli o'zgarishi mumkin yoki ma'nosi bilan birga eskirishi va iste'moldan umuman chiqishi mumkin. Ayniqsa istiqlool yillaridan so'ng o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar va shu davrda faol iste'molda bo'lgan so'zlarning lug'atini shakllantirish, ya'ni muyyan bir tilning ma'lum davrida faol qo'llaniladigan so'zlarning izohli

<sup>3</sup> Хожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (3-мақола) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 6- сон, 26-28 б

<sup>4</sup> Normamatov S. Leksikografiya asoslari. T: O'qituvchi. 2020. B 15

<sup>5</sup> Normamatov S. O'sha kitob 20

lug'atini tuzish tilshunoslikdagi muhim masalaga aylandi. Shu ababdan A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov, R. Kokren, M. Saidxonov, A. Sobirov, D. Quronovlar tarafidan 2001-yilda "Hozirgi o'zbek tilining faol so'zlarining izohli lug'ati" yaratildi. Azim Hojiyev bu izohli lug'atning tuzilishi va foydalanish tartibini shakllantirdi. Unga ko'ra lug'atning har bir maqolasi uch qismga bo'linadi: 1) ma'nolari belgilanib iohlanuvchi birlik, 2) lug'aviy birlikning qayd etiluvchi ma'nosi, 3) shu ma'noga beriluvchi izoh.<sup>6</sup> Ushbu lug'at faqat hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanilayotgan yoki faollashishi kutilayotgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham unda o'zbek tili tarixining muayyan bir davrida qo'llanilgan, hozirgi kunda esa iste'moldan chiqqan so'zlar aks etmaydi. Shu bilan birga o'zbek tilida hozirgi paytda biroz kam qo'llanuvchi yangi kirib kelgan iqtisodga, texnikaga oid so'zlar ham kiritilgan. Bunday so'zlarni kiritishda ularning kelajakdagi qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, Akademik Azim Hojiyev faqatgina morfologiya va unga doir tushunchalar, Xususan so'z va shakl yasalishi borasidagi ilmiy ishlar bilan chegaralanib qolmay, balki o'zbek ilmiy tilshunosligi rivojlanish taraqqiyotida leksikografiyaning shakllanishi uchun beqiyos xizmat qiladigan ilmiy ishlar yaratdi. Olimning o'zbek tili sinonimlari, o'zbek tilining imlosi, lingvistik atamalariga doir lug'atlari ona tilimiz uchun, yosh tadqiqotchilar uchun, talabalar uchun xizmat qilib kelmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE " CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN, 1(4).
2. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. Pedagogika, 171.
3. Akhrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. Uzbekistan: Language and Culture, 4(4).
4. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 11(11).
5. Akhrorov, A. A. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLK PROVERBS IN THE UPBRINGING OF A PERFECT PERSON. Theoretical & Applied Science, (1), 42-44.
6. Akbarovich, A. A. (2023). МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МА'NONING NAMOYON BO 'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 163-166.
7. Sharipov, F. G. (2021). CREATION OF MORPHOLOGICAL DICTIONARIES AS A FACTOR OF DEVELOPMENT OF UZBEK THEORETICAL MORPHOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 41-46.
8. Sharipov, F. G. (2022). Improvement of classification of parts of speech in modern Uzbek morphology. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 14, 16-22.
9. Sharipov, F. G., & Sharipov, J. G. (2021). THE EARLY PERIOD OF THE FORMATION OF UZBEK SCIENTIFIC LINGUISTICS IN THE MIRROR OF THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC CONSCIOUSNESS. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 41-46.

<sup>6</sup> Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati /A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq.— T.: «Sharq», 2001.— 336 b

10. Sharipov, F. G., & Galiyev, T. F. (2021). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 89-94.
11. Sharipov, F. (2019). VIEWS OF AYUB GULOMOV OF WORD-FORMATION. *Bulletin of Gulistan State University*, 2019(1), 42-45.
12. Sharipov, F. G., & Toshtemirova, N. X. (2019). AYYUB GULYAMOV AND THE STUDY OF THE CASE SYSTEM IN THE UZBEK LANGUAGE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 58-63.
13. Sharipov, F. G., & Raupov, M. X. (2019). THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE. *HISTORY*, 6, 29-2019.
14. Xudoyqulova, S. (2023). MAQOLLARDA SHEVAGA XOS SO 'ZLARNING QO 'LLANILISHI (A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari asosida). *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 299-303.
15. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
16. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
17. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O 'RGANILISHIGA DOIR QARASHLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 315-320.
18. Muxudullayev, F. (2023). LINGVOPOETIGA DOIR QARASHLAR. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 31-37.
19. Muhudullaev, F. (2023). INVERSION AS A SYNTACTIC OPPORTUNITY. *Science and innovation*, 2(B1), 402-405.
20. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.